

# AHOLINI RO'YXATGA OLISH JARAYONIDA AHOLINING AYRIM TOIFALARIGA NISBATAN SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI YIG'ISH TARTIBI



## **Aholini ro'yxatga olish jarayonida aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish tartibi**

Aholini ro'yxatga olishni o'tkazish sanasida chaqiruv asosida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar bo'lgan, shuningdek kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga jalb etilgan harbiy xizmatchilar bo'lgan va ularning yopiq hududlarda yashayotgan oila a'zosi bo'lgan respondentlar haqidagi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish harbiy qism komandiri yoki u vakolat bergen shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, aholini ro'yxatga olishni o'tkazish sanasida bolalar internatlarida, tarbiya muassasalarida, "Bolalar shaharchalari"da, ijtimoiy muassasalarda, diniy muassasalarda, shifoxonalarda va boshqa sog'liqni saqlash tashkilotlarida, ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida, qamoqda saqlash joylarida, tergov hibxonasida, axloq tuzatish muassasalarida va maxsus muassasalarda yashayotgan (bo'lgan) respondentlar to'g'risidagi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish ushbu qismda nazarda tutilgan muassasalar hamda tashkilotlar ma'muriyatları tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarini xodimlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ularning o'zi bilan birga bo'lgan oila a'zolari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlardagi kvotalangan lavozimlarga yuborilgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ro'yxatga olinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan chet davlatlar doimiy vakolatxonalarining, xalqaro, hukumatlararo tashkilotlar va chet davlatlar hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining xodimlari bo'lgan chet el fuqarolari hamda ularning oila a'zolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq diplomatik imtiyozlarga va immunitetga ega bo'lgan boshqa shaxslar ro'yxatga olinmaydi.

### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

#### **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-01-09 15:32:34